

ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДА ТИЛ МАДАНИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ MASALALARI

Ахмедова Муяссар Хадиматовна,
*ис.ф.д. ТДПУ Умумий психология
кафедраси проф. в/б.,*

Toshmatov Boboxon Egamshukurovich,
*ТДПУ Умумий психология кафедраси
катта ўқитувчиси
E-mail: muyassaraxmedova1968gmail.com*

Резюме. В настоящее время одной из актуальных проблем является исследование национальных языковых особенностей, языковой культуры с научной точки зрения. В данной статье рассматриваются вопросы повышения языковой культуры. При этом на основе научных источников анализируется, что в ходе развития общества в структуре языка также происходят определенные изменения.

Ключевые слова: язык, культура, речь, диалект, социальное, социум, пространство, время, поколение, система, ценность, национальное.

Resume. Currently, one of the urgent problems is the study of national linguistic characteristics, linguistic culture from a scientific point of view. This article discusses the issues of improving language culture. At the same time, based on scientific sources, it is analyzed that certain changes also occur in the structure of language during the development of society.

Keywords: language, culture, speech, dialect, social, society, space, time, generation, system, value, national.

Kirish. Hozirgi davrda butun dunyo xalqlarining ijtimoiy-siyosiy va madaniy aloqalariga texnika, texnologiyalarning shiddatli rivojlanishi katta ta'sir ko'rsatayotganligi odatiy hol bo'lib qoldi. Turli millat va elatlarga mansub xalqlarning madaniy boyliklardan bahramand bo'lish bu aloqalar tizimida muhim ahamiyatga egaligini e'tirof etish zarur.

Madaniyatning biror-bir sohasi tilsiz mavjud bo'la olmaydi. Tilning jamiyat, millat, elat hamda turli qatlamlarning tarixi va madaniyatini aks ettirishi uning muhim xususiyati hisoblanadi. Dunyo xalqlari turli tillarda muloqot qilishlariga qaramasdan, u madaniyatning muhim atributlardan biri sifatida o'z ahamiyatini saqlab qoladi. Til ijtimoiy tizim va uning tarkibiga kiruvchi madaniyatga hal qiluvchi ta'sir ko'rsata olmaydi.

Natijalar va muhokama. Til va madaniyatning o'zaro bog'liqligiga va ta'siri masalasiga makon va zamon nuqtai nazaridan yondashish maqsadga muvofiqdir. Til madaniyati insonning ma'naviy olamida muhim o'rin tutadi. O'tgan tarixiy davr, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarning muhim xususiyatlari unda o'z aksini topadi. Til jamiyat hayotining rivoji, uning o'tmishi va buguni bilan chambarchas

bog‘liqdir. Jamiyat taraqqiyoti davomida til tuzilishida ham muayyan o‘zgarishlar sodir bo‘lishi mumkin.

Til madaniyati - bu avvalambor tilning ijtimoiy amaliyot tufayli paydo bo‘lgan va qat’iy tartibga keltirilgan qonun qoidalari, uning lug‘at boyligidir. Masalan, adabiy faoliyat doirasining kengayishi, milliy til variantlarining umumlashuvi, adabiy til va dialektlar orasidagi farqlarning kamayishi, tilning “kasbiylashuvi” ya’ni ma’lum faoliyat sohasi talablariga mos kabilar ham til madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida o‘z aksini topadi”[9. 41].

Til madaniyati-sotsiolingvistik hodisadir. Bir tomondan, til tizimi va kommunikativ faoliyat o‘rtasidagi munosabatlar, boshqa tomondan esa, til tizimida ijtimoiy va nutqiy faoliyatning individual xususiyatlarining o‘zaro aloqadorligi til madaniyatida namoyon bo‘ladi. Tilshunos olimlar T.Bushuy, Sh.Safarov “Tilning madaniy mazmunini ifodalovchi muhim xususiyatlari qatoriga uning erkin ishlatilishini (o‘zi ifodalaydigan narsaga nisbatan hech qanday fizik va biologik razmiylikning yo‘qligi), mahsuldorligini (jumladan tuzish imkoniyatining cheklanmaganligini), semantik universallikni (ifodalaydigan fikrning mavzusi cheklanmaganligi), qatlamlarning siljishini kiritish mumkin” [6. 52], degan fikrni bildiradilar. Qiyosiy-tarixiy va tipologik tilshunoslik nazariyasining asoschisi Vilgelm fon Gumboldt(1767-1895 y.y.) tilni millat xarakterini (xususiyatlarini) belgilovchi hodisalar sirasiga kiritadi. Gumboldt kontseptsiyasida “tilning mohiyatini inson ongi va tafakkuri, uning madaniyati va ma’naviy hayoti bilan bog‘lab o‘rganish kerak”, degan g‘oya muhim ahamiyatga egadir[7. 123].

Jamiyatda boshqa odamlar bilan hamkorlikda hayot kechirish, faoliyat ko‘rsatish, qonun-qoidalarga amal qilish, madaniyat va qadriyatlarni o‘zlashtirish ijtimoiylashuvi jarayoni mahsulidir. Shuning uchun til avlodan-avlodga uzatilishi bilan vorisilik xarakteri kasb etadi. Shuning uchun fikrni ifodalaydigan va muhim kommunikativ vazifani bajaradigan birliklar xamda bu birliklarning o‘zaro birikishi va bog‘lanishini belgilovchi qonun-qoidalar yig‘indisi hisoblanadigan til tayyor holda jamiyatning barcha a’zolarining ma’naviy mulkiga aylanishi mumkin. Demak, til belgilari (birliklari) moddiy (material) va ruhiy (psixik, ideal) tomonlarning, tovush va ma’noning birligidan iborat bo‘lib, biri ikkinchisiz bo‘lmaydi, ular o‘zaro dialektik bog‘liq holda, ijtimoiy vazifa bajaradi.

Til madaniyatining yuqorida qayd etilgan tamoyillariga shaxs umumiy xususiyatlarining tarkibiy qismlari deb ham qarash mumkin. So‘zlovchi shaxsning til madaniyati maqomini o‘rganishda esa, uning ijtimoiy-madaniy qoidalarga qanday rioya qilishi hisobga olinadi. Bu qoidalarni belgilashda shaxsning yoshi, jinsi,

ma'lumoti, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy va iqtisodiy holati kabilar inobatga olinadi[6. 51-52].

Falsafa va tilshunoslikning tilning tuzilishi, tizimi, qonuniyatlarini o‘rganish sohasidagi nuqtalar ijtimoiy taraqqiyot uchun muhim ahamiyat kasb etadi, chunki til boyligi, uning madaniyat komponenti sifatidagi mavqe'i kishilar o‘rtasidagi o‘zaro muloqotning sermazmun bo‘lishini ta'minlaydi. Shuningdek, har bir xalqning milliy tili va falsafasi uning bebaho ma'naviy boyligi sifatida avloddan-avlodga uzatiladi. Til madaniyatiga jiddiy e'tibor qaratgan ingliz faylasufi Frensis Bekon (1561-1626 y.y.) ko‘pincha odamlar tomonidan anglanmagan holda tildan ehtiyotsizlik bilan foydalanishga undaydigan sababalarni “Bozor idoli” (yoki “Bozor maydoni”) deb ataydi. Tilga ehtiyotsizlik bilan munosabatda bo‘lish, tilning to‘g‘riligi va aniqligiga e'tibor bermaslik, odamlar o‘rtasidagi munosabatlarda tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Bunday holatni bozor kuni savdo maydonida kuzatish mumkin[9. 43].

O‘zbekiston mustaqilligi yillarida o‘zbek tilining jahon sivilizatsiyasi tizimidagi o‘rnini to‘g‘ri talqin qilish sohasida faylasuflar va tilshunoslar tomonidan muayyan tadqiqotlar olib borildi. Shuningdek, jamiyatimizning rivojlanishi jarayonida adabiy tilning jamiyat hayotida o‘ynaydigan roliga jiddiy ahamiyat qaratilmoqda. Lekin bu sohada muayyan muammolar borligini ham e'tirof etish zarur. Birinchi prezidentimiz I.A. Karimov rasmiy muloqot jarayonida adabiy til qoidalariga rioya qilish zarurligi, ba'zi hollarda esa sheva unsurlarini qo‘shib gapirish holatlari mavjudligini ta'kidlab, quyidagilarni e'tirof etadi: “Ayni vaqtda jamiyatimizda til madaniyatini oshirish borasida hali ko‘p ish qilishimiz lozimligini ham unutmasligimiz zarur. Ayniqsa, ba'zan rasmiy muloqotlarda ham adabiy til qoidalariga rioya qilmaslik, faqat ma'lum bir hudud doirasida ishlatiladigan sheva elementlarini qo‘shib gapirish holatlari uchrab turishi u masalalarning hali-hanuz dolzarb bo‘lib qolayotganini ko‘rsatadi. Bu haqda so‘z yuritganda, bobomiz Alisher Navoiyning “Tilga e'tiborsiz-elga e'tiborsiz” degan so‘zlarida naqadar chuqur hayotiy haqiqat mujassam ekaniga yana bir bor ishonch hosil qilamiz”[5. 89].

Xulosa. Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, jamiyat tizimida muhim komponent hisoblanadigan madaniyat va tilning rivojlanishi dialektik aloqadorlikda bo‘lib, ular har bir tarixiy davrda inson turmush tarzi, tafakkuri hamda dunyoqarashiga o‘zining muayyan ta'sirini ko‘rsatadi. Til madaniyatining takomillashuvi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sohalarining barqarorligiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Axmedova M.X. *Yazыk i kulьtura // Molodoy uchenyy, 2016. №1. S. 619-621.*

2. Axmedova M.X. Milliy tilning etimologik va psixolingvistik xususiyatlari // Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2021 № 1. 49-54.
3. Axmedova M.X., Axmedova M.Q. Til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlar // Development of pedagogical creativity in modern education. 2023/12/5.
4. Axmedova M.X. Ijtimoiy jarayonlarning til xodisalariga ta'siri // Yoshlarga ijtimoiy-psixologik xizmat ko‘rsatish markazi. 2023/2/11. B. 49-53.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. “Ma'naviyat”. 2008. B. 8;89.
6. Bushuy T., Safarov Sh. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi. Toshkent. “Fan” nashriyoti. 2007. 51-52 bet.
7. Ramishvili T.V. Gumbol’dianstvo // Lingvisticheskiy entsiklopedicheskiy slovar’ M.: SE, 1990. S. 5;123.
8. Rozanov V.V. Religiya i kultura. – M.: Respublika, 1995. S. 6;8-10.
9. Shapovalov V.F. Osnovy filosofii sovremennosti k itogam XX veka. Kurs lektsii. Flinta. Nauka. 1998. S. 43.